

О‘ЗBEKISTO RESPUBLIKASNING HARBIY XAVFSIZLIGINI TAMINLASHDA XALQARO XAMKORLIK ROLINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ASOSLARI

Shamuratov Ushkun Zaripbayevich

mayor, O‘R QK Akademiyasi 1-bosqich tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola asosan, O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizligini ta‘minlashda xalqaro hamkorlik rolining o‘ziga xos xususiyatlarining dolzarb muammolarini ilmiy jihatdan o‘rganib chiqildi. Maqolada ushbu mavzu bo‘yicha davlatimiz rahbarining fikrlari va qarashlari, hamda davlat tomonidan qabul qilingan qonunlarga asoslangan holda harbiy xavfsizlikni ta‘minlashning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib chiqildi.

Kalit so‘zlar: terrorizm, ekstremizm, MDH, ShHT, NATO, BMT, KHSht, GUAM, milliy xavfsizlik.

Annotation: this article mainly scientifically studied the actual problems of the specifics of the role of international cooperation in ensuring the military security of the Republic of Uzbekistan. The article highlighted the views and views of the head of state on this topic, as well as the peculiarities of ensuring military security based on the laws adopted by the state.

Keywords: terrorism, extremism, CIS, SCO, NATO, UN, KHSht, GUAM, national security.

O‘zbekistonning 1999-yilgacha bo‘lgan harbiy xavfsizligi deganda mamlakatni tashqi tajovuzlardan himoya qilishni ta‘minlash tushunilgan. Hozirgi vaqtda “xavfsizlikning yangi o‘lchovlari” (siyosiy ekstremizm, terrorizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy qurol va giyohvand moddalar savdosi, migratsiya) birinchi o‘ringa chiqdi.

Tahdidlarni anglashning o‘zgarishi va zamonaviy harbiy mojarolar mohiyatini qayta ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasining harbiy siyosatga oid rasmiy hujjatlarida o‘z aksini topgan. 2000-yil fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy xavfsizlik kengashi tomonidan Mudofaa doktrinasi tasdiqlandi (Mudofaa doktrinasi, xuddi 1997-yildagi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi kabi, yopiq va e‘lon qilinmagan), 2001-yilning may oyida esa yangi tahrirda. “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Keyinchalik 2018-yil 9-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 458-sonli qarori bilan yangi tahrirda qabul qilingan.

O‘zbekiston harbiy-siyosiy yo‘nalishni shakllantirar ekan, Markaziy Osiyoda mintaqaviy, mahalliy urushlar va qurolli to‘qnashuvlarni keltirib chiqarish imkoniyatidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, cheklangan va o‘rta miqyosdagi harbiy

to‘qnashuv, qo‘poruvchilik va terroristik urush shakllari va usullari bilan birga bo‘lish ehtimoli eng yuqori hisoblanadi. Rasmiy hujjatlarda O‘zbekiston mintaqada va uning chegaralari yaqinida mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mojarolardan foydalanib, kuchli bosimga duchor bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Tashqi tajovuz yoki mintaqadan tashqari kuchlarning to‘qnashuviga aralashuv uchun bahona yaratish uchun partizanlar urushini boshlash ehtimoli qayd etilgan. Shu bilan birga, bir qancha strategik muhim zonalarda mojaro o‘choqlarini yaratishga urinishlar, keng ko‘lamli favqulodda vaziyatlarni, jumladan, transchegaraviy favqulodda vaziyatlarni sun‘iy provokatsiya qilish mumkin [1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, Prezident Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni hisoblanadi. Prezident Milliy xavfsizlik kengashini ham tuzadi va uning raisi hisoblanadi. 2000-yildan prezident apparatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat maslahatchisi lavozimi joriy etilgan.

2000-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish jarayonida Bosh shtab negizida Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi tuzildi va bugungi kunda Bosh shtab deb yuridik nom berildi (boshlig‘i – Sh.Xolmuxammedov) – yagona qo‘mondonlik organi – rivojlantirish va mamlakat suvereniteti va hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilish sohasidagi qarorlarni amalga oshirish.

Qurolli Kuchlarning kundalik faoliyatiga Qurolli Kuchlar tarkibiga kiradigan bo‘ysunuvchi harbiy tuzilmalarga ega bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar rahbarlari rahbarlik qiladilar.

Harbiy xavfsizlikni ta‘minlashda Qurolli Kuchlarning globallashuv sharoitidagi o‘rni. Davlatimizning mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq, mamlakat mudofaasini tashkil etish, hamda Qurolli Kuchlarimiz faoliyatining huquqiy mezonlarini ishlab chiqish masalalariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni sifatida jiddiy ahamiyat qaratilgan.

Mintaqada yuzaga kelgan harbiy-siyosiy va harbiy-strategik vaziyatdan kelib chiqqan holda va dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlar rivojining tahlilidan kelib chiqib, davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bugungi kunda zamon bilan xamnafas tarzda takomillashtirib borish eng asosiy vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini islox etish, modernizatsiya qilish bo‘yicha bir qancha vazifalar belgilangan. Ulardan birinchilar qatorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yildagi “O‘zbekistonni rivojlantirishning tarraqqiyot strategiyasi” va 2022-yildagi “Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” ni aytib o‘tsak bo‘ladi. Ularning maqsadlari – Qurolli Kuchlar jangovar tayyorgarligini takomillashtirish, tarkibi bo‘yicha kam sonli,

ixcham, biroq harakatchan, zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog‘ bilan bultash, O‘zbekiston xavfsizligini mustaqil va ishonchli himoya etish.

So‘ngi yillarda milliy armiyani izchil qurish va isloh etish Qurolli Kuchlarning qiyofasi, tashkiliy tuzilishi, qo‘shinlarni boshqarish tizimi, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi tubdan o‘zgartirildi, qo‘shinlar qurol-aslaha va texnikaning eng yangi na‘munalari bilan ta‘minlandi. Shu bilan birga, Respublikamizning geostrategik joylashuvi, shuningdek, mintaqada yuzaga kelayotgan harbiy-siyosiy vaziyatni hisobga olib, harbiy okruglar va qo‘shinlarning tuzilishi va vazifalari qayta ko‘rib chiqildi. Qo‘shinlarni qurol-aslaha va harbiy texnikaning eng zamonaviy na‘munalari bilan ta‘minlash choralari ko‘rilmogda.

O‘zbekiston Respublikasi amalda o‘zining zamonaviy, ixcham, harakatchan, mamlakatimiz xavfsizligi, barqarorligi, sarhadlarimizning dahlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan milliy armiyasiga ega.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, tinchlik davrida Qurolli Kuchlar O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta‘minlaydi, xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf qilish vositalaridan biri hisoblanadi, urush davrida esa Qurolli Kuchlar davlat xavfsizligi va suverenitetini himoya qilish vazifalarini to‘la bajarishga qodir [2].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarida harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati, harbiy qism va bo‘linmalarning jangovar qobiliyatini real oshirish, qo‘shinlar jangovar va ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarligini tashkillashtirish tizimini takomillashtirish borasida muntazam ishlar olib borilmogda.

Hozirgi kunda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan tahlikali vaziyatning, globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o‘zgarib borayotgan sharoitlarda jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar, hamda tahdidlar ko‘lami tobora kengayib bormogda. Buning oqibatida jahondagi vaziyat murakkablashib, tanglik o‘choqlarining global miqyosda keskinlashuviga hamda yangilari paydo bo‘lishiga olib keladi. Shunday bir globallashuv sharoitlarida harbiy xavfsizlikni ta‘minlashda Qurolli Kuchlarning o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi 458-sonli qonuni davlatimizning harbiy-siyosiy masalalar bo‘yicha qat‘iy pozitsiyasini ifoda etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati quyidagi prinsiplarga asoslangan:

boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, bundan harbiy tajovuzning oldini olish va uni daf etish hollari mustasno;

xavfsizlikning bo‘linmasligi, o‘z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo‘l qo‘yilmasligi;

boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ehtimol tutilgan nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;

harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, har kanday davlatlararo tuzilmadan, agar u harbiy-siyosiy blok etib o‘zgartirilsa, chiqib ketish huquqini o‘zida saqlab qolish; mudofaaning yetarli darajada bo‘lishi;

harbiy qurilishning zamonaviy harbiy mojarolar xususiyatiga monand bo‘lishi; yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg‘in qurolini ishlab chiqarish, olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishdan voz kechish;

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi zona to‘g‘risidagi shartnoma prinsiplariga sodiqlik;

o‘z hududida chet el harbiy bazalari va ob‘ektlarining joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

Qurolli Kuchlarning xorijdagi tinchlik o‘rnatish bilan bog‘liq operatsiyalarda va harbiy mojarolarda ishtirok etmasligi;

xalqning ma‘naviy-axloqiy qadriyatlariga va o‘ziga xos madaniy tamadduniga tayanish.

Joriy yilning 12 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida Prezidentimiz tomonidan Qurolli Kuchlarni rivojlantirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, hamda bu borada zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va ilg‘or innovatsiyalarni keng tadbiq etish bo‘yicha muhim ko‘rsatmalar berilib, barcha darajadagi qo‘mondonlik va boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish, qo‘shinlarda avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari va komplekslarni joriy qilish orqali ularning hamkorlikdagi operativ va jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, axborot va kiberxavfsizlikni ta‘minlash istiqboldagi dolzarb vazifalar belgilandi.

Bugungi kunda har qanday armiyaning jangovar shayligi nafaqat uning zamonaviy qurol-aslahalar va harbiy texnikalar bilan butlanganligi, balki shaxsiy tarkibning ayni o‘sha zamonaviy harbiy texnikalarni boshqarishni qay darajada o‘zlashtirganligi, hamda jangovar sharoitlarda uni mohirlik bilan boshqara olishiga ham bevosita bog‘liq.

Mamlakatning mudofaa faoliyatini takomillashtirish, harbiy sohada milliy xavfsizlikka nisbatan mavjud tahdidlarni hisobga olgan holda Qurolli Kuchlarni isloh qilish masalasi bugungi kunning dolzarb mavzusi sanaladi. Buning uchun ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganib, harbiy san‘at nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish talab etiladi.

Bu ma‘noda xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkoxurujlar, hamda uyushgan jinoiy guruhlarga qarshi kurashish har bir mamlakatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun mintaqaviy hamkorlik va o‘zaro hamjihatlikda tinchlikni ta‘minlash yo‘lida harbiy-ilmiy hamkorlik doirasini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasining mudofaa va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan barcha tizimli chora-tadbirlari va sa’y-harakatlari mintaq va jahon miqyosida tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashga qaratilgan.

Garchi xavf va tahdidlar mavjud bo‘lsada, yangi O‘zbekistonni musaffo osmoni va chegaralarining daxlsizligi ishonchli qo‘llardadir.

O‘zbekiston Respublikasining harbiy xavsizligini ta’minlashda xorij davlatlari bilan o‘zaro yaqindan hamkorliklar olib borilgan va davom etmoqada.

O‘zbekistonning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro harbiy hamkorligi uning tashqi siyosiy faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘z harbiy doktrinasida urushlar va harbiy mojarolarning oldini olish, harbiy bloklarda qatnashmaslik bo‘yicha tashqi siyosatining asosiy strategik yo‘nalishini e’lon qilgan O‘zbekiston davlatlararo harbiy hamkorlikni harbiy qurilishning ochiqligini ta’minlash va harbiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik kompleksiga kiruvchi davlatlar bilan harbiy xavfsizlikni ta’minlash sohasida sheriklik munosabatlariga ega. O‘zbekiston MDH, ShHT kabi harbiy-siyosiy tarkibga ega bo‘lgan xalqaro tuzilmalarda ishtirok etadi, NATOning “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturi doirasida ham hamkorlik qiladi. Ikki tomonlama darajada O‘zbekistonning Rossiya va AQSh bilan munosabatlari eng muhimi hisoblanadi.

Kollektiv xavfsizlik shartnomasini yaratish tashabbusi O‘zbekiston bo‘lishiga qaramay, 1999-yil fevralida Toshkent ushbu tashkilotni samarasiz deb hisoblab, Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasidagi ishtirokini uzaytirishdan bosh tortdi. Norasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Rossiyaning ushbu tashkilotdagi rolini haddan tashqari ustun deb bilgan va bunga rozi bo‘lmagan. Shunday qilib, 1999 yil aprel oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan matbuot anjumanida Prezident I.Karimov o‘z mamlakatiga “O‘zbekiston mustaqil yo‘ldan borishi mumkinligi haqidagi g‘oyani qabul qilishni istamaydigan imperator kuchlar” tomonidan tahdid qilinayotganini ta’kidladi. Biroq, 2006 yilda O‘zbekiston KXShTga a’zolicini yangiladi. Shu bilan birga, 2009 yilning boshida O‘zbekiston Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga a’zolicini to‘xtatgach, OAVda O‘zbekistonning KXShT a’zolicidan chiqishi yoki to‘xtatilishi mumkinligi haqida yana mish-mishlar paydo bo‘la boshladi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari qatori Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo. Shunga qaramay, bu ShHTning “Tinchlik missiyasi-2007” antiterror mashg‘ulotlarida qatnashish uchun harbiy kontingentini yubormagan yagona davlat bo‘lib chiqdi. O‘zbekistonning ShHT faoliyatida faollashishi 2009-2010 yillarda, ya’ni mamlakat tashkilotga raislik qilishi kutilmoqda.

1995 yilda O‘zbekiston MDHning boshqa davlatlari qatori MDHning havo hujumidan mudofaa qo‘shma tizimini yaratishda ishtirok etdi, biroq keyinchalik bu sohada Rossiya bilan faqat ikki tomonlama asosda hamkorlik qilishga qaror qildi [3].

Prezident I.A.Karimov 1999 yil aprel oyida Vashingtonda NATOning 50 yilligiga bag'ishlangan xotira tadbirlarida GUAM ga a'zo davlatlar rahbarlari bilan uchrashdi. Muzokaralardan so'ng tomonlar O'zbekistonning mazkur tashkilotga a'zo bo'lishiga oid hujjatlarni imzoladilar. O'zbekiston GUAM assotsiatsiyasida ishtirok etgan davrda Toshkent uning boshqa a'zolari bilan hamkorlikni faol rivojlantirdi. Shunday qilib, Ukraina va O'zbekiston o'rtasida strategik sheriklik munosabatlari o'rnatildi. 1998 yil 19 fevralda tuzilgan keng ko'lamli Do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma ikki davlatning siyosiy va iqtisodiy yaqinlashuviga asos bo'ldi.

Biroq, 2005 yil may oyidagi Andijon voqealaridan keyin O'zbekiston GUAMdan chiqishi haqida rasmiy bayonot bergan edi. Shu bilan birga, mazkur tashkilot faoliyatida asosiy e'tibor iqtisodiy tarkibiy qismga emas, balki harbiy-siyosiy va mafkuraviy jihatlariga qaratilayotgani ta'kidlandi. Bunga Amerika ma'muriyati ta'sirida bo'lgan GUAM davlatlari O'zbekiston rahbariyatiga Andijon voqealari yuzasidan tanqidiy fikrlar bildirgani sabab bo'ldi.

O'zbekiston MDH davlatlarining xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirishga mo'ljallangan MDHning Antiterror markazi ishida muayyan ishtirok etadi. O'zbekiston Markaz tomonidan o'tkazilgan "Yug-Antiterror-2001" mashg'ulotlarida ishtirok etgan, biroq uni moliyalashtirmagan va Markazning Bishkekdagi doimiy guruhi ishida ishtirok etmagan [4].

O'zbekiston - AQSh. Amerika Qo'shma Shtatlari bilan harbiy-siyosiy va harbiy hamkorlik manfaatlari O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida, shu jumladan Afg'onistonga nisbatan faol ichki va tashqi siyosat olib borishga qodir bo'lgan potentsial sheriklaridan biri sifatida baholanishi bilan bog'liq edi va Tojikiston, O'zbekiston va AQSH o'rtasida mudofaa sohasidagi haqiqiy hamkorlikning boshlanishini belgilab bergan asosiy hujjat 1995 yil 13 oktabrda qabul qilingan AQSh Mudofaa vazirligi va O'zbekiston Mudofaa vazirligi o'rtasida mudofaa va harbiy aloqalar bo'yicha o'zaro anglashuv va hamkorlik to'g'risidagi memorandumdir. Unda bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan harbiy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari belgilab berilgan.

2002 yil mart oyida Prezident I.A.Karimovning AQSHga tashrifi chog'ida siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va xavfsizlik sohalarida strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiya, hamda yadro texnologiyalarini tarqatmaslik bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.

Biroq, 2005 yil may oyida Andijon voqealaridan keyin AQSh va O'zbekiston munosabatlari yomonlashdi. Toshkent Vashingtonni O'zbekistonda "rangli inqilob" uyushtirishga urinayotganlikda gumon qildi, Vashington Andijondagi O'zbekiston xavfsizlik kuchlarining xatti-harakatlarini mustaqil tekshirishni talab qildi.

Shu bilan birga, 2005 yil iyul oyida ShHT sammitida AQShni AQSh harbiy xizmatchilarining O‘zbekiston va Qirg‘iziston hududida davom etishi maqsadga muvofiqligini ko‘rib chiqishga chaqiruvchi deklaratsiya qabul qilindi.

2005 yil 30 iyulda O‘zbekiston AQShdan Xonobod havo bazasini olti oy ichida tark etishni talab qildi. Respublika parlamenti yuqori palatasi yig‘ilishida Amerika harbiy kontingentini olib chiqish to‘g‘risidagi bayonot qabul qilindi.

O‘zbekiston va NATO o‘rtasidagi hamkorlik “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturi doirasida va ikki tomonlama asosda amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston 1994 yildan PFP a‘zosi bo‘lib, 1995 yildan buyon PFP doirasida o‘tkazilayotgan xalqaro tinchlikparvar mashqlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

O‘zbekistonning NATOga a‘zo davlatlar va ushbu dasturni imzolagan boshqa davlatlar bilan o‘zaro hamkorligi milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta‘minlash, tinchlikparvarlik texnikasini rivojlantirish, harbiy-siyosiy va harbiy xarakterdagi chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018 yil 19 sentyabr kuni BMT Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi masalalarga e‘tiborni qaratsak:

Biz xavfsizlik kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz. Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi rahbariyati tomonidan tashkilotni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo‘llab-quvvatlaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizligini ta‘minlash bevosita Markaziy Osiyo davlatlaridagi xavfsizlik va tinchlik bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq.

AQSH sobiq Prezidenti janob Donald Tramp ma‘muriyatining Afg‘oniston bilan qo‘shni mamlakatlarni afg‘on muammosini tinch yo‘l bilan hal qilishga ko‘maklashishga oid da‘vatini qo‘llab-quvvatlaymiz. O‘zbekiston Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo‘shmoqda va bundan keyin ham hissa qo‘shadi. Afg‘oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo‘lishi lozim. Xalqaro hamjamiyatning sa‘y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg‘onistondagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak [5].

Bu jafokash yurtda tinchlik o‘rnatishga ko‘maklashish yo‘lidagi bizning umumiy qat‘iy harakatlarimiz aslo susaymasligi lozim, deb Prezidentimizni yig‘ilish ishtirokchilarini astoydil safarbar etganligini ta‘kidlash o‘rinlidir.

Bundan tashqari, dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa

omillar bilan birga, jaholat va muhosasizlik tashkil etadi. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash eng asosiy vazifamizdir.

Bugungi kunda mintaqaning barcha mamlakatlari terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelmoqda. Ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishni faqat birgalikda, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkin.

Xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki va o'zgalarniki" deb ajratishdan voz kechish, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish zarur, degan qat'iy fikrdamiz. Birlashgan Millatlar Tashkiloti mintaqaviy xavfsizlik muammosini, avvalo, preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda hal qilishda muhim o'rin tutishi lozim. Shuningdek, MDH, SHHT, YXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash zarur [6].

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda barqaror va izchil taraqqiyotning istiqbollari qo'shni Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bilan chambarchas bog'liqdir. Birinchi galdagi vazifalardan biri Afg'onistonning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga qo'shilishiga har tomonlama ko'maklashishdan iborat. Bu dunyo hamjamiyatining Afg'onistonda tinch taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlariga g'oyat muhim hissa bo'lib qo'shiladi. O'zbekiston bundan keyin ham bu qo'shni mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklash, uning transport va energetik infratuzilmasini rivojlantirish, milliy kadrlar tayyorlash jarayonlarida faol ishtirok etishini ta'kidlamoqchiman. Markaziy Osiyoda barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor yo'nalishi – ekstremistik g'oyalarga qarshi qat'iy kurashishdan iboratdir.

Demak, ***hulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki***, Yangi O'zbekistonning harbiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro hamkorlikning rolini va undagi o'rnini o'rganib borish bugungi kunda bizning eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Komilov Baxtiyar. Markaziy Osiyo davlatlarida milliy xavfsizlikni ta'minlash muammolariga konseptual yondashuvlarni shakllantirish. In: Terrorchilik muammosiga qarshi turish – mintaqaviy va xalqaro hamkorlikda Markaziy Osiyoning roli. Vena, 2005. S. 64.
2. Komilov Baxtiyar. Markaziy Osiyo davlatlarida milliy xavfsizlikni ta'minlash muammolariga kontseptual yondashuvlarni shakllantirish. 64-bet.
3. Madamidjonova Z.M. Tojikistonda harbiy-siyosiy hamkorlikni rivojlantirish // Rossiya va MDH davlatlarida harbiy soha ustidan demokratik nazorat. M., 2002. S. 127.
4. Burnashev R., Chernix I. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari // Qit'a. 2003 yil. № 2. 31 yanvar.
5. <http://uniforma.freenet.uz/mirotvor.ht> IA Trend, 2009 yil 9 mart. Murojaat sanasi: 26.05.2023 y.
6. <http://news-ru.trend.az/politics/foreign>. Murojaat sanasi: 26.05.2023 y.